

TIL O'QITISH METODIKASI: CHET TILINI O'RGATISHNING ZAMONAVIY YONDASHUVLARI

RAXIMJONOVA SOLIHA

Oriental universiteti Arab filalogiyasi (ingliz) yo'nalishi 1-kurs talabasi

Chet tillarini o'rganish yoshlarning dunyoqarashini
kengaytirishi, ularni zamonaviy bilim va texnologiyalar
bilan qurollantirishda muhim omil ekanini alohida ta'kidlagan”
“O'zbekistonning Birinchi Prezidenti Islom Karimov

ANNOTATSIYA: Ushbu maqola zamonaviy chet tilini o'qitish metodikasi va o'rganish usullarini tahlil qiladi. Talabalarga mavzularni oson tushuntirish, darslarni samarali tashkil etish va ularni qiziqarli qilish uchun kommunikativ, interfaol va talabaga yo'naltirilgan yondashuvlar tavsiya etiladi.

Shuningdek, maqolada darslarni eng samarali vaqtlarda o'tkazish va AKT vositalaridan foydalanish orqali o'quv jarayonini optimallashtirish bo'yicha amaliy maslahatlar berilgan.

Kalit so'zlar: Chet tili O'qitish metodikasi, Zamonaviy yondashuvlar
Kommunikativ metod, Kompetensiyaviy yondashuv, Talabaga yo'nattirilgan ta'lim
Darslarni samarali tashkil etish

Ushbu maqotaning maqsadi — 1-kurs talabalari uchun chet tilini o'rganishni osonlashtirish, darslarni samarali va tushunarli tarzda tashkil etish usullarini tahlil qilishdir. Shu bilan birga, maqola o'qituvchilarga mavzuni sodda, amaliy va interfaol metodlar orqali tushuntirish orqali talabalarni faol ishtirok etishga rag'batlantirish bo'yicha tavsiyalar beradi.

1- Chet tim Arab tili — dunyoda keng tarqalgan til bo‘lib, qariyb 420 million odam uni ona tili sifatida so‘zlaydi. Bu til Sharq mamlakatlarida rasmiy til hisoblanadi va diniy, madaniy va ilmiy sohalarda keng qo‘llaniladi. Arab tilini bilish orqali sayohat, tarjimonlik, turizm, Haj va Umra ziyoratlari hamda muqaddas kitoblarni asl tilida o‘qish imkoniyati paydo bo‘ladi. Tilning grammatikasi murakkab bo‘lsa-da, uni o‘rganish amaliyot va mashq orqali osonlashadi.

Bugungi kunda yoshlar orasida eng ko‘p berilayotgan savollardan biri — “Agar men arab tilini o‘qisam, qayerda ishlashim mumkin va qancha oylik olaman?” degan savoldir. Arab tilini mukammal bitgan mutaxassislarga bo‘lgan talab hozirgi kunda juda yuqori. Chunki arab tili nafaqat diniy, balki iqtisodiy, diplomatik va xalqaro munosabatlar sohalarida ham muhim til hisoblanadi.

Arab tilini bilgan yoshlar tarjimon, arab tili o‘qituvchisi, xalqaro savdo bo‘yicha mutaxassis, turizm va aviatsiya sohalarida gid, mehmonxona administratori, xorijiy kompaniyalarda menejer, elchixonalar va xalqaro tashkilotlarda xodim sifatida faoliyat yuritish imkoniyatiga ega bo‘lmoqda.

Bugungi kunda arab tilini yaxshi bilgan mutaxassislarning oylik maoshi oddiy ishchilarga nisbatan ancha yuqori bo‘lib, ularning daromadi bilim darajasi, ish tajribasi va ishlayotgan tashkilotiga qarab muntazam oshib boradi. Shuningdek, arab tilini bilish xorijiy davlatlarda ishlash va nufuzli grant hamda stipendiyalar asosida ta’lim olish imkoniyatlarini ham kengaytiradi.

Xususiy maktablar:

Arab tili o‘qituvchisi: 8—12 million so‘m oylik.

Tajriba va malaka oshgani sari yuqori chegaraga yaqinlashadi. Xususiy o‘quv markazlar / akademiyalar:

Boshlang‘ich o‘qiluvchi: 5 million so‘m.

Tajribali, sertifikatli, maxsus yo‘nalish bo‘yicha o‘qituvchi: 20 milliongacha chiqishi mumkin.

Chet qishloqlarda / boshqa shaharlar:

Arab tilini bitadigan mutaxassislar uchun oylik: 25 million so‘m atrofida.

Xususiy universitetlar:

Arab tili bo‘yicha o‘qituvchi yoki mutaxassis: 35—40 million so‘m oylik olishi mumkin. Bu odatda katta tajriba, sertifikat va maxsus kurslarni olib, dars beradiganlar uchun.

Saudiya Arabistoni

Arab tili o‘qituvchisining oyligi SAR 10,500 — 20,400 atrofida bo‘lishi mumkin (taxminan 30 — 60 + million so‘mga teng), bu tajriba va lavozimga bog‘liq.

@ Dubay / Birlashgan Arab Amirliklari (UAE)

Arab tili o‘qituvchisi AED 4,000 — 20,000 oylik oladi (taxminan 40 — 200 + million so‘m), tajriba va ish joyi bo‘yicha. @

naukri gul f.com

Dubay shahrida o‘rtacha ko‘p holatlarda taxminan AED 5,100 — 8,800 oylik daromad ko‘rsatilgan (malaka va tajriba bilan farqlanadi).

• Misr

Misrda arab tili o‘qiluvchisining oylik daromad i odatda EGP 3,640 — 11,000 (taxminan 80 000 — 240 000 so‘m) atrofida bo‘ladi.

ml Arab tilini biladiganlar uchun universitetlarda oyliklar (taxminiy) O‘zbekiston

Universitet/ Oliy ta'lim; Tajribali, sertifikatli 35—40 mln so‘m

SüUciya ÂraDistoni

Universitet / Oliy ta'lim; Tajribali, sertifikatli SAR 10,500 — 20,400

30—60+ mln so'm

Universitet / Oliy ta'lim; Tajribali, sertifikatli AED 8,000 — 20,000

80—200+ mln so‘m

Universitet/ Oliy ta'lim; Tajribali, sertifikatli EGP 6,000 — 11,000

0,12—0,24 mln so'm

Tukiya

Universitet/ Oliy ta'lim; Tajribali, sertifikatli 66,800 — 119,300 TRY

46—84 mln so'm

2.Öqitish metodikasi - Arab tilini o'rgatishda darslar oldin mavzu bilan tanishtirish va qisqa kirish bilan boshlanadi. Keyin darslar bosqichma-bosqich, oddiydan murakkabga qarab, sodda tilda tushuntiriladi va o'rgatiladi. Amaliy va nazariy mashqlar, dialoglar, lug'atlar hamda multfilmlar yordamida talabalarga mavzuni tushunish osonlashadi va bilim mustahkamlanadi.

Bugungi kunda rivojlangan davlatlarda chet tilini o'qitishda zamonaviy, talabaga qulay va amaliy yondashuvlar keng qo'llanilmoqda. Xorijiy davlatter tajrioasi.

Turkiya tajribasi.

Turkiyada chet tilini o'qitishda kommunikativ metod asosiy o'rinda luradi. Darslarning katta qismi suhbat, rolli o'yinlar va real hayotiy vaziyatlarga asoslangan dialoglar orqali olib boriladi.

Grammatik qoidalar esa muloqot jarayonida asta-sekin tushuntiriladi. Bu usul talabalarni gapirishga o'rgatadi va til to'sig'ini yengishga yordam beradi.

Saudiya Arabistonida tajrioasi.

Saudiya Arabistonida arab tilini o'qitish bosqichma-bosqich tashkil etiladi. Avval so'zlashuv, keyin yozish va oxirida grammatik tahlil o'rgatiladi. Multfilm, video va qisqa hikoyalar orqali o'qitish talabalar uchun tilni tabiiy va qiziqarli tarzda o'zlashtirish imkonini beradi.

Janubiy Koreya tajrioasi.

Koreyada chet tilini o'qitishda gamifikatsiya, ya'ni o'yin asosida o'qitish keng tarqalgan. Ball yig'ish, reytinglar va musobaqalar orqali talabalar o'qishga rag'batlantiriladi. Bu usul raqobat muhiti yaratib, bilimni tezroq o'zlashtirishga yordam beradi.

Finlyandiya tajribasi.

Finlyandiyada talabaga yoʻnaltirilgan taʼlim asosiy yondashuv hisoblanadi. Tatabalar oʻziga qutay tezlikda oʻrganadi, oʻqituvchi esa faqat yoʻnaltiruvchi va yordamchi rolini bajaradi. Bu esa stresssiz va samarali taʼlim muhitini yaratadi.

3.- Zamonaviy yondashuvlar

Chet tilini oʻrgatishda kommunikativ, kompetensiyaviy va talabaga yoʻnaltirilgan yondashuvlar qoʻllaniladi. Kommunikativ metod talabalarga real vaziyatlarda muloqot qilish imkonini beradi, kompetensiyaviy yondashuv esa bilimni amaliyotda qoʻllash koʻnikmalarini rivojlantiradi. Talabaga yoʻnaltirilgan taʼlim darslarni oʻquvchilar ehtiyojiga moslashtirishga xizmat qiladi.

Arab tilini oʻrgatishda zamonaviy yondashuvlar talabalarni faot va qiziqarli tarzda oʻrganishga ragʻbatlantiradi. Bu yondashuvlarga kommunikativ, kompetensiyaviy va talabaga yoʻnaltirilgan metodlar kiradi.

4.- Kommunikativ nletoc — talabalar guruhda sodda dialoglar va rolî oʻyinlar orqali muloqot qiladi, masadan: “doʻkonda mahsulot soʻrash” yoki “sayohat paytida yoʻnaltirish soʻrash”.

5.- Kompetensiyaviy yondashuv — oʻquvchilar mini-loyihalar orqali yangi soʻz va grammatikani amalda qoʻllaydi, masadan: “oʻz sayohat rejangizni arab tilida yozish”.

Talabaga yoʻnaltirilgan taʼtim — darslar talabalarning qiziqishiga mos ravishda, video, multfilm va interaktiv mashqlar yordamida tushuntiriladi, har bir talaba oʻz tezligida oʻrganadi. Talabalarga arab tilini amalda ishlalish va mavzuni puxta oʻzlashtirish imkonini beradi. Talaba bilimni faqat yodlash bitan cheklanmay, uni real vaziyatlarda qoʻllashni oʻrganadi.

Amaliyot: Talabadostlaribilansoddasuhbatqilib, oʻrgangansoʻzvajumlalarnimashqqiladi. Muammoli vaziyat: Gaplashayotganda xato qilinsa, talaba toʻgʻri ifodani lopadi va vaziyatni hal qi ladi

Jamoaviy ishlash: Talabalar bir jamoa boʻlib, chunmagan yoki esdan chiqqan mavzularni muhokama qiladi, yoki bir mavzu ortaga tashlanib, arab tilida erkin suhbat

boshlashadi. Shu tarzda, ular bir-biriga yordam beradi va mavzuni yanada chuqurroq o'zlashtiradi

6. Talabaga yo'naltirilgan ta'lim

Talabaga yo'naltirilgan ta'lim — darslarni o'quvchining qiziqishlari, ehtiyojlari va ustuvorliklariga moslashtirish yondashuvi. Bu usulda talaba darsning markazida bo'ladi, o'qituvchi esa faqat yo'naltiruvchi va yordamchi sifatida faoliyat ko'rsatadi. Talaba asosiy fanlarni birinchi o'ringa qo'yib, ularni yaxshilab o'zlashtirgach, qo'shimcha mavzularga e'tibor beradi.

Misollar: Talaba asosiy mavzularni birinchi o'rinda o'rganadi, masadan, grammatikani tushunib olgach, so'z boyligini kengaytiradi.

Darslar video, multfilm va interaktiv mashqlar orqali tashkil etiladi, shunda har bir talaba o'z tezligida o'rganadi.

Talabalar savol berish va fikr bildirish orqali mavzuni chuqurroq tushunadi va mustahkamlaydi.

Shu tarzda, talaba ustuvorlikni to'g'ri belgilash, faollik va mustaqil fikrlash ko'nikmalarini rivojlantiradi va mavzuni osonroq o'zlashtiradi.

7.- Darstarni sanlarali tashkil etish

Talaba darslarni samarali o'zlashtirishi uchun aniq reja va tartib kerak. Har bir mavzuni o'rganish oldidan oziga finish belgilash kere : masadan, "bugun shu mavzuni o'rganaman, keyin dam olaman, dom olish voqti 5 minut bolishi kere onacha dam olish chalqish bolmasligi kere ". Timer belgilash orqali vaqtni boshqarish osonlashadi.

Darsdan oldingi tayyorgarlik:

Yaxshi uxlab olish, tinch va yorug' xonada bo'lish, qorinni to'q saqlash. Zarur bo'lsa, kofe yoki choy ichish.

Telefon, noutbuk, daftar, ruchka va kitoblar doim yoningizda bo'lishi kerak. Dars va mashq qilish tavsiyalari:

Kitob o'qish bu savollaringizga javob beradi masadan ilm olish sirlari , ilm olishni 13 tavsiyasi , xotirani mustaxkamlash kabi kitoblar.

Takrorlash uchun eng qulay vaqt: bomdodan quyosh chiqunicha asrdan -shomgacha.
Vaqt va samaradorlik:

Ertalab soat 4—6 miya 100% ishlaydi.

Kechpayt soat 6—8 75% samaradorlik.

8—18 gacha esa 50% samaradorlik.

Takrorlashusuli:

Har bir mavzuni 5 mahal takrorlash, 20 daqiqa takrorlash natijaga erishishga yordam beradi. Shu tarzda, talaba darsni rejalashtirib, o'z vaqtini to'g'ri taqsimlab, mavzuni tez va samarali o'zlashtiradi.

8. O'z ustingda ishlash va muvaffaqiyat sari intilish

Hayotda har bir insonning eng katta boyligi — bu bilim va tajriba. Ayniqsa, universitetga kelgan 1- kurs talabalari uchun bu davr shaxsiy o'sish va kelajak sari qadam bosish davri hisoblanadi. Har bir mavzuni o'rganish, har bir yangi bilim talaba hayotida yangi imkoniyatlar eshigini ochadi.

O'ziga motivatsiya berish

Talaba har bir kichik yutug'iga xursand bo'lishi kerak. Masadan, mavzuni tushunsa, yangi so'zlarni gaplarda ishlata olsa yoki mini-loyihani bajarib tugatsa, o'zini rag'batlantirishi mumkin. Bu kichik muvaffaqiyatlar katta natijaga yo'l ochadi.

O'qituvchining roli

O'qituvchi ham talabaning motivatsiyasini oshirishda muhim. Har bir talabani maqtash, muvaffaqiyatini e'tirof etish uning o'z ustida ishlashga bo'lgan ishtiyoqini kuchaytiradi. Masadan, mavzuni yaxshi tushungan, yangi so'zlarni gaplarda ishlatgan yoki mini-loyihani bajargan talaba e'tirof oladi.

Xulosa

Motivatsiya — bu ichki kuch va o'z ustida ishlashga bo'lgan intilishdir. Talaba har bir muvaffaqiyatga xursand bo'lishi, o'zini rag'batlantirishi va jamoaviy faoliyat orqali

bitimni mustahkamlashi kerak. Shunda tilni o'rganish jarayoni nafaqat samarali, balki qiziqarli va ilhomlantiruvchi bo'ladi.

Xulosa qilib aytganda, agar talaba va o'qituvchi barcha tavsiyalarga amal qilsa, dars jarayoni yanada samarali, qiziqarli va foydali bo'ladi. Talaba mavzuni bosqichma-bosqich o'rganib, jamoaviy ishlash va amaliy mashqlar orqali bilimni mustahkamlaydi, o'zini rag'batlantiradi. O'qituvchi esa talabaning faolligi va muvaffaqiyatini maqtab, yo'naltirib va yordam berib jarayonni yanada samarali qiladi.

Shuningdek, xorijiy davlatlarda qo'llaniladigan zamonaviy yondashuvlar — Turkiyada kommunikativ metodlar, Saudiya Arabistonida bosqichma-bosqich o'qitish, Janubiy Koreyada gamifikatsiya va Finlyandiyada talabaga yo'naltirilgan ta'lim — chet tilini o'rganish jarayonini yanada samarali va qiziqarli qiladi. Bu tajribalar talaba uchun tilni tabiiy va amaliy tarzda o'zlashtirishga, o'qituvchi uchun esa darsni optimallashtirish va motivatsiyani oshirishga xizmat qiladi.

Shu bilan, chet tilini o'rganish ham talaba, ham o'qituvchi uchun natijaga yo'naltirilgan, ilhomlantiruvchi va foydali tajribaga aylanadi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Jalolov Chet tilini o'qitish metodikasi. — Toshkent: Fan va texnologiya, 2020.
2. Ilm olish sirlari. — Toshkent: Na'naviyat, 2016.
3. ChatGPT sun'iy intellekt platformasi — OpenAI, 2025.
4. YouTube platformasi: English & Arabic Learning Channels (ta'limiy videodarslar).
5. Google qidiruv tizimi — www.google.com (ilmiy maqolalar va elektron manbalar)